

Yanvar, 2026

Hurmatli oilalar,

Immigrant sifatida shaxsan men maktab jamoalari immigrant o'quvchilar va oilalar uchun qanchalik zarurligini hamda immigrant o'quvchilarimiz va oilalarimiz maktablarga qanchalik hissa qo'shayotganini bilaman.

Nyu-York shahri davlat maktablarida (NYCPS) immigratsiya maqomidan qat'i nazar, har bir o'quvchi va oilaga mustahkam, inkluziv va xayrixoh ta'lim imkoniyatini taqdim etamiz.

Eslatib o'tamiz, NYCPS mahalliy bo'lmagan huquqni muhofaza qilish organlariga, agar qonunda talab qilinmagan bo'lsa va faqat NYCPS advokatlari bilan maslahatlashmasdan o'quvchilar, maktab muassasalari yoki yozuvlarga ruxsat taqdim **etmaydi**.

Nyu-York shahrida maktablar farzandlarimiz uchun xavfsiz joydir. Agar biror o'quvchi yoki oilada immigratsiya holati bilan aloqador savollar yoki xavotirlar bo'lsa, ulardan tegishli yordam xizmatlari bilan bog'lanish uchun maktab direktoriga murojaat qilishni so'raymiz.

Shuningdek, bizda "Project Open Arms" tashabbusi orqali xodimlarimiz va oilalarimiz foydalanadigan immigrant o'quvchilar va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlovchi ko'plab resurslar mavjud. Batafsil axborot uchun schools.nyc.gov/ProjectOpenArms saytiga tashrif buyuring.

Bundan tashqari, NYCPS Immigrantlar ishlari bo'yicha mer ofisi (MOIA) bilan hamkorlik qilishda davom etmoqda. Batafsil axborot uchun oilalardan MOIA Huquqiy yordam xizmati tezkor raqamidan (1-800-354-0365) foydalanishni nyc.gov/immigrants saytiga kirishni so'raymiz.

Maktablar tizimi rahbari sifatida men maktablarimiz o'quvchilar va oilalar uchun xavfsiz va inkluziv makon bo'lib qolishini ta'minlashga butunlay sodiqman.

Hamkorlik umidi ila,



Kamar H. Samuels, Maktablar tizimi rahbari